

## ANDALUS DAVRIDA ARAB MADANIYATI VA ADABIYOTI.

**Zikirova Baxtigul Iskandar qizi**

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti*

*Arab filologiyasi talabasi*

*"Madaniyat – bu faqat binolar va yozuvlar emas.*

*Madaniyat – inson tafakkurining gultoji."*

*Ibn Xaldun*

**Annotasiya:** *Mazkur maqolada Andalus davrida arab madaniyati va adabiyotining rivojlanishi haqida soʻz yuritiladi. Andalus arab madaniyatining eng yuksak bosqichlaridan biri boʻlib, unda ilm-fan, sanʼat va adabiyot keng rivoj topgan. Ushbu maqolada mashhur olimlar, shoirlar va ularning ijodiy merosi haqida oddiy va tushunarli tarzda maʼlumot berilgan.*

**Kalit soʻz va iboralar:** *Andalusiya, Qurtoba, Al-Husayniyning "Qudatu Qudobas", Jobir ibn Hayyon, Ahmad ar-Roziy, Ispaniya, "Cronica del Moro Rasis", Ibnuʼl Qutiyya (vaf. 977), "Tarixu iftitoʻhiʼl-Andalus" , "Axborun majmua", adabiyot, ilm-fan, muvashshah, zajal, Ibn Hazm, Ibn Rushd.*

**Kirish.** Tarix sahifalarida shunday davrlar borki, ular insoniyat tafakkuri va madaniyatining eng yuksak choʻqqilaridan biri sifatida qadrlanadi. Andalus ana shunday tamaddunlar-dan biridir. VIII asrdan XV asrgacha davom etgan ushbu davrda arablar nafaqat siyosiy jihatdan, balki madaniy, ilmiy va adabiy sohalarida ham ulkan yutuqlarga erishgan.

Menimcha, madaniyat deganda faqat binolar, yozuvlar yoki sanʼat asarlari emas, balki ilm, tafakkur va insoniy qadriyatlarining rivoji ham tushunilishi kerak. Sharqda ilk uygʻonish davri. Bu davrda ilm-fan, maorif, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, meʼmorchilik va boshqa sohalar misli koʻrilmagan darajada yuksaldi. Taraqqiyotga katta hissa qoʻshgan oʻlkalardan biri Andalus edi. Bu haqda mutafakkir Saloh Kamolning "Musavvar tarixi Islom" asarida batafsil maʼlumot berilgan.

Hozirgi Ispaniya va Portugaliya hududi, yaʼni, Pireney yarim oroli qadimda "Andalus" deb atalgan. Arab saltanatining bir qismi boʻlgan bu hududda VIII-X asrlarda kuchli va adolatli boshqaruvga asoslangan davlat paydo boʻldi. Andalusdagi taraqqiyot oʻz vaqtida Ovrupaga har tomonlama taʼsir qildi. Islom madaniyati va ilm-fani yutuqlari Gʻarb mamlakatlariga asosan shu hudud orqali yoyildi.

Andalus 711 yili fath etilib, bu yerda musulmonlar davlati qaror topgan edi. Bu haqda "Musavvar tarixi Islom" asarida quyidagi maʼlumotlar bor: "Andalus qitʼasi umaviylar

davrida, Abdumalik zamonida fath etilgan edi. Va shul kundan buyon umaviya davlatining bir viloyati abbosiylardan Abdulloh Saffohga magʻlub boʻlgach, hukumat umaviylar qoʻlidan chiqib, abbosiylar qoʻliga oʻtdi. Abbosiylarning umaviy-larga qilgan zulmlaridan achchiqlanib, Andalus musulmonlari abbosiylar davlatini tan olmay qoʻydi. Oʻzlariga mustaqil bir hukumat tuzishga qaror berdilar”. Bu mustaqil davlat 750 yili qaror topib, “Qurtuba saltanati” nomi bilan mashhur boʻldi. Unda oʻn toʻrt hukmdor hukmronlik qildi.

Andalus hukmdorlari ham ilm-fanga homiylik qilgan, oʻzlari diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor edi. Ularning saroylari ilm ahli bilan doimo gavjum, muntazam ilmiy majlislar, munozaralar oʻtkazilar edi. Bu davralarda hukmdor va amaldorlarning farzandlari ham ishtirok etardi.

Andalusning birinchi hukmdori Abdurrahmon (756-788 yillar) dastlab ichki nizolarni bartaraf etib, Fransiya qiroli Pipin va boshqa tashqi dushmanlar hujumini qaytardi. Tinchlik qaror topgach, mamlakatni isloh qilishga kirishdi. Oldin uni oltita viloyatga boʻlib, ularni muntazam yoʻllar bilan poytaxt Qurtuba shahriga bogʻladi. Kanallar, suv yoʻllari qazdirdi. Yurt obod boʻldi. Qurtuba va boshqa shaharlarda katta-katta madrasa va masjidlar, kasalxonalar qurildi. Abdurrahmon Andalusni dushmanlardan himoya qilish uchun qalʼa va istehkomlar barpo ettirdi. Yurt mudofaasi va tijorat uchun kemalar yasatdi.

Hishom ibn Abdurrahmon ham otasi kabi mamlakatni isloh qilish va rivojlantirish yoʻlidan bordi. Ilm va maorif rivoji uchun koʻp ishlar qildi. Bu hududda boshqa millat va xalqlar ham bemalol yashar edi.

Andalusning toʻrtinchi hukmdori Abdurrahmon ikkinchi ibn Hishom (821-850 yillar) gʻoyat ilmiy odam boʻlib, saroyi har vaqt olim va ulamolar bilan toʻla edi. Har kuni ilmiy majlislar, turli masalalar boʻyicha munozaralar boʻlar edi. Saloh Kamol yozishicha, Sharq Gʻarbdagi Islom mamlakatlari ichida Abdurrahmondan inʼom-ehson koʻrmagan biror ilm ahli qolmagan edi. Bundan tashqari, Abdurrahmon Andalusda muntazam pochta xizmatini tashkil qildi va poytaxtga keladigan yangi yoʻllar qurdirdi. Bu Ovrupadagi dastlabki pochta tizimi ekani manbalarda taʼkidlangan.

Sakkizinchi hukmdor Abdurrahmon uchinchi ibn Muhammad (913-962 yillar) davrida Andalusning rivoji yanada yuksaldi. Qurtuba jahonning eng rivojlangan, chiroyli shaharlaridan biriga aylandi. Shahar yaqinida meʼmoriy jihatdan juda noyob “Madinat uz-Zahro” saroyi barpo etildi. Sanoat va tijorat ham taraqqiy etib, Ovrupa bozorlarida Andalus mollari katta shuhrat topdi.

Shu maʼnoda Andalus nafaqat ilmiy va madaniy markaz, balki turli madaniyat-larning uygʻunlashgan maskani boʻlgan. Bu davrda ilm-fan va falsafa gullab-yashnagan, arab adabiyoti esa oʻzining yangi bosqichiga koʻtarilgan.

### Andalus adabiyoti va she'riyati

Andalusda arab adabiyoti an'anaviy shakldan chiqib, o'ziga xos yangi yo'nalishlarni yaratdi. Bu yerda **muwashshah** va **zajal** janrlari paydo bo'ldi. Muwashshah murakkab qofiyaviy tizim va musiqiy ohangga ega she'r bo'lsa, zajal esa xalq orasida mashhur, tushunarli va ohangdor she'r shakli edi.

Men Andalus adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biri deb **Ibn Hazmni** aytgan bo'lardim. U sevgi, insoniy tuyg'ular va axloqiy qadriyatlar haqida yozgan. Uning "**Tavqul-hamoma**" asari sevgi haqidagi eng mashhur kitoblardan biri bo'lib, unda muhabbatning turli jihatlari chuqur talqin qilingan. Ibn Hazmning asarlari nafaqat o'sha davr uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarb hisoblanadi.

### Ilm-fan va madaniyat

Andalus shaharlarida katta kutubxonalar va ilmiy markazlar faoliyat yuritgan. Masalan, **Qurtuba kutubxonasi** dunyoning eng yirik kutubxonalaridan biri bo'lib, unda 400 mingdan ortiq kitob saqlangan. Shu bilan birga, Andalus me'morchilik san'ati ham yuksak darajada bo'lib, **Alhamra saroyi**, **Qurtuba masjidi** kabi inshootlar bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Menimcha, Andalus davridagi olimlarning hissasi juda katta bo'lgan. **Ibn Rushd** falsafa va tibbiyot bo'yicha mashhur bo'lib, uning ishlari keyinchalik Yevropa Uyg'onish davriga ham katta ta'sir ko'rsatgan. **Zahraviy** esa jarrohlik bo'yicha yozgan kitoblari bilan tibbiyot tarixida muhim o'rin tutgan.

Mavzuga doir manbalarni 4 qismda ajratish mumkin:

- ◆ Islom tarixi;
- ◆ Andalusiya tarixi;
- ◆ Tarjimai hol (Taboqat va Tarjima) asarlari;
- ◆ Geografiya va Sayohat kitoblari.

Islom olamida IX asrdan boshlab umumiy islom tarixiga oid ko'plab asarlar yozila boshlandi. Bu ishlar odatda saodat asridan to muallif yashagan davrgacha bo'lgan islom olamida sodir bo'lgan voqealarni ko'rib chiqadilar. Bu ishlar ularning ko'pchiligi Andalusiya tarixi haqida ma'lumot beradi. Biroq bu asarlarda sharqda tashkil etilgan musulmon davlatlari, xususan Umaviylar va Abbosiylar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, Andalusiya o'ld ma'lumotlar juda kam. Bundan tashqari, umumiy islom tarixiga oid asarlarda ko'proq Andalusiyaning zabt etilishi va Andalusiyaning siyosiy tarixiga oid mavzular yoritilgan. Andalusiya tarixiga oid islomiy-tarixiy asarlar ichida Ibn Qutaybaning "Kitob almaorif"i, Balazuriyning "Futuhu'l-buldon", Tabariyaning "Tarixu'l Umom va'lMuluk", Ibnu'l-Javziyning "al-Muntazamiy", Abu'l-Fidoning "al-Muhtasar fi Tarixi'l-Bashar'iy" va Ibnu'l-Asirning "al-Komil fi't Tarix" va Ibn Kasirning "alBidoya va'n-Nihoya" kabi asarlar asosiylari hisoblanadi. Andalusiya va Qurtoba haqida eng boy ma'lumotlarga ega manbalar Andalusiya tarixchilari tomonidan

yozilgan Andalusiya tarixidir. Bu asarlarda Andalusiya o'zining siyosiy, ma'muriy va ijtimoiy-madaniy jihatlari bilan batafsil muhokama qilinadi. Boshqa tomondan, X asrdan boshlab yozilgan bu asarlar mintaqa arixchilari tomonidan yozilgani bilan alohida ahamiyatga ega Ibnu'l Qutiyyaning "Tarixu Iftitohi'l-Andalus" asari Andalu-siyaning zabt etilishi haqidadir.

Al-Husayniyning "Qudatu Qudobas" XIII yuz yilda Andalusiya tarixining birinchi manbalaridan biri bo'lib, Qurtoba hodisalarini eslatib o'tadi. Islom olamida Fanlar tasnifi qachon boshlangani aniq ma'lum emas. Biroq, taxminlarga ko'ra, bu hijriy ikkinchi asrga to'g'ri keladi. Ilmlarning birinchi tasnifchisi Jobir ibn Hayyon (vaf. 810) deb taxmin qilinadi. Jobirning fikricha, ilmlar diniy va dunyoviy bo'lishi kerak. Kimyo va ba'zi san'atlar dunyoviy ilmlardadir, ruhiy fanlar diniy fanlarga kiradi. Ibn Hazm fikricha, aqliy ilmlar to'rt yo'l bilan olinadi. Shulardan birinchidan, "butun qismdan kata", "yagona jism bir vaqtning o'zida turli joylarda uchramaydi" degani insonning tabiati ongning aniq birinchi bilimidir. Bular ilohiy kelib chiqishdir. Makkariyning asari Andalusiya davridagi Qurtoba haqida bergan boy ma'lumotlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Asar yetti jildidan iborat. Asarning birinchi jildida IV bob Qurtoba shahriga bag'ishlangan bo'lib, 695 sahifani qamrab oladi. Shuningdek, boshqa jildlarda Andalusiyaning umumiy tarixi tilga olinsada, Qurtoba haqida ham vaqti-vaqti bilan ma'lumotlar beriladi. Asarda Qurtoba bilan bog'liq siyosiy, geografik, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy masalalar haqida juda muhim va boy ma'lumotlar mavjud. XVI asr oxirida yashagan Andalusiyalik tarixchi Makkariy mavzularni qayta ishlash jarayonida o'sha davrgacha Andalusiya manbalari bergan ma'lumotlarni ham yetkazadi. Bu jihati bilan asar keyingi Andalusiya tarixchilari tomonidan Andalusiya va Qurtoba tarixiga oid eng muhim ma'lumotnoma sifatida qabul qilingan. Andalusiya manbalarining muhim qismini tarjimai hol asarlari tashkil etadi. Bu asarlarda odatda qisqacha siyosiy tarix hikoya qilinadi. So'ngra Andalusiya yashagan muhim shaxslar (hukmdor, olim, shoir) haqida alifbo tartibida batafsil ma'lumot beriladi. Tarjimai holga oid eng muhim asarlar qatorida Ibnu'lFaroziyning "Tarixu Ulam'l-Andalus", Ibn Bassamning "az-Zahira fi Mahosin-i Ahli'l-Jazira", Dabbiyning "Bug'yatu'l-Multamis fi Talili" asarlari mavjud. Qurtoba bilan mustaqil shug'ullangan Andalusiyalik tarixchilardan biri Ibn Said al Mag'ribdir. Ibn Said "al-Mug'rib fi Hula'l-Mag'rib" nomli ikki jildlik biografiya asarida Andalusiyaning G'arbiy, O'rta va Sharq kabi uchta asosiy mintaqaga ajratadi va uni uch qismga bo'ladi. Birinchi qismning birinchi kitobi 200 betga yaqin bo'lib, Qurtoba shahrida istiqomat qiluvchi turli kasb egalari, olimlar, amirlar, shoirlar va muhim shaxslarni o'z ichiga oladi va ularning tarjimai hollarini keltiradi. Umuman Andalusiya tarixiga oid bu asarlardan tashqari, Qurtoba bo'yicha ham alohida tadqiqotlar olib borilgan. G'arbda ham, Islom olamida ham Qurtoba haqidagi ushbu tadqiqotlarning ba'zilari shaharni turli jihatlardan ko'rib chiqsa, boshqalari Qurtobaning o'ziga xos tomoni haqida ma'lumot beradi. Ibnu'l-

Qutiyya (vaf. 977), "Tarixu iftitohi'l-Andalus" Abu Bakr Muhammad ibn Umar ibn Abdulaziz ibn Ibrohim al-Ishbili al-Qurtubiy ishbiliyalik bo'lishi mumkin, deb taxmin qilinadi, chunki uning ustozlari orasida Ishbiliya olimlari ko'p bo'lgan va nisbasida "al-Ishbiliy" iborasi bo'lgan. Ibnu'l-Qutiyyaning "Tarixu iftitohi'l-Andalus" asari, Balozuriyning "Futuhu'l-buldon" asaridan keyin Andalusiyaning zabt etilishi va tarixi haqida eng dastlabki asarlardan. U eng qadimgi manba hisoblanadi. Ibn al-Qutiyya hayotligida sodir bo'lgan voqealarga o'zi guvoh bo'lgani uchun asarida batafsil ma'lumot bergan. Shu bilan birga Andalusda ilmiy hayotning vujudga kelish shart-sharoitlarini tahlil etadi. Ishbiliyaning siyosiy tarixiga kelsak, ayniqsa Ibrohim ibn Hajjojning Ishbiliya ma'muriyatini bosib olishi va Abdurahmon III ning 913-yilda Ishbiliyda Umaviylar hukmronligini qayta tiklagani haqida ancha keng ma'lumot beradi. "Ahborun majmua" – Andalusiya Umaviylar davri haqida ma'lumot beruvchi eng qadimgi manbalardan biri bo'lgan bu asarning muallifi noma'lum. Uning asl nomi "Ahborun majmu'atun fi fathi'l-Andalus", esa Andalusiyani zabt etish ishida Abdurahmon III hukmronligining oxirigacha bo'lgan davrda sodir bo'lgan voqealar kiritilgan. Andalusiyaning birinchi tarixchisi va geografi hisoblangan Ahmad arRoziy (955) o'z mamlakati tarixiga oid muhim asar bo'lgan "Ahboru muluki'l-Andalus" asarini yozgan. U roviylar va keksa avlod vakillaridan xabarlar yig'ib, ularni mantiq doirasida tartiblash va uyg'un bir butunlikda birlashtirish orqali ilgari surgan ushbu asari bilan Andalusiyadagi o'lkashunoslik qoidalarini belgilab bergan birinchi shaxs bo'ldi. Ahmad ar-Roziy, yana u o'z tarixini Pireney yarim orolining geografiasiga tayinlagan uzoq muqaddimasi bilan boshladi, bu undan oldingi boshqa Andalusiya mualliflarida ko'rilmagan. Keyingi asarlardagi iqtibos va iqtiboslardan ma'lum bo'lishicha, muallif geografik ma'lumotlardan so'ng Ispaniyaning rimliklar va vestgotlar davridagi tarixiga to'xtalib, so'ngra asari tugaguniga qadar Andalusiya tarixiga to'xtalib o'tgan. Andalusiya amirlari haqida so'z yuritar ekan, u o'z davrining ichki va tashqi siyosiy voqealari, hojib va vazirlar, ularning axloqiy jihatlari, sho'ro tashkiloti, ikkinchisi, mashhur olimlar va ularning amir bilan aloqalari, hamda ular haqida hikoya qiladi. amirning qo'shni xristian va musulmon davlatlari bilan aloqalari. U nafaqat ma'lumotni yetkazadi, balki vaqtivaqti bilan o'z tahlili va baholarini beradi. Bu uslub bilan u Ibn Hayyonga katta ta'sir ko'rsatdi. "Ahbor majmu'a", "Zikru iladi'l-Andalus" kabi asarlardan tashqari Xatib, al-Himyariy va al-Makkariy asardan iqtibos keltirgan asosiy mualliflardir. Bizgacha faqat "Cronica del Moro Rasis" nomli ispancha tarjimasi yetib kelgan. Bu aslida Portugaliya qiroli Dionisio (Dinis) (1279-1325) iltimosiga ko'ra, Gil Peres ismli ruhoni tomonidan ba'zi musulmonlar yordami bilan qilingan portugalcha tarjimaning tarjimasidir. Ispancha tarjimada jiddiy xatolar, qo'shimchalar va kamchiliklar mavjud. Ahmad ar-Roziydan keyin Arib ibn Sa'dning (vaf. 979-80) bizgacha yetib kelgan ikki muhim asari haqida gapirish o'rinli bo'ladi. Ulardan biri "Silatu Tarixi't-Tabariy" bo'lib, "Tarixi-umom va'l-

muluk”ga qo‘shimcha sifatida yozgan. Tabariy «Tarix»ni 302/915 yilgacha davom ettirgan bo‘lsa-da, Arib o‘z ishini 903-yilda boshlagan va 903 – 907-yillardagi voqealarni Tabariydan jamlagan, ma‘lumotlarga qo‘shimchalar kiritgan va hijriy 302 – 320-yillar oralig‘idagi sanalarni shaxsan o‘zi yozgan. Qo‘shimchaga faqat Abbosiylar haqida ma‘lumot kiritgani iddao qilinsada, boshqa tomondan “Muhtasar min Tarixi‘t-Tabariy” nomli boshqa bir asarida ham Tabariyning “Tarixi”ni umumlashtirgan, ham Andalusiya va Mag‘rib haqidagi xabarlarni qo‘shganga o‘xshaydi. Aribning Tabariy tarixiga oid “Siladan” boshqa asari yo‘q, shuning uchun Andalusiya haqidagi xabarlar Silada bo‘lishi kerak, deb o‘ylash mantiqiy. Asarning Abbosiylarga oid qismi Tabariy usuliga taqlid qilib yozilgan bo‘limining uchta alohida nashri mavjud. Andalusiya bilan bog‘liq bo‘laklar Dozi tomonidan Ibn Izoriyning “al-Bayon” kitobining oxirida nashr etilgan. Bu parchalar, E.Levi-Provansalning Andalusiya tarixiga oid klassik asarida, Abdurahmon III davrini yozishda, yagona manbaga sifatida tayangan. Aribning astronomiya va iqtisodiy tarix nuqtai nazaridan muhim sanalishi mumkin bo‘lgan “Taqvimu Qurtoba” nomli asari bugungi kungacha yetib kelgan va bu tadqiqotida quyosh va oying harakatiga qarab bir yilda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni tushuntirgan va bu o‘zgarishlarning inson tanasi, iqlimi va o‘simliklariga ijobiy va salbiy ta‘siri, u boradagi ta‘sirlar va ko‘rilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni yozib qo‘yganini qo‘shimcha qilish joiz.

### **Xulosa**

Xullas, qariyb uch asr davom etgan Andalus uyg‘onish davrida musulmon ilm-fani va madaniyati Ovrupaga kirib bordi, qit‘a tamadduniga katta turtki berdi.

Andalus davri arab madaniyati va adabiyotining eng gullagan davrlaridan biri bo‘lib, u nafaqat musulmon dunyosi, balki butun jahon madaniyatiga katta ta‘sir ko‘r-satgan. She‘riyatda yangi janrlar paydo bo‘lib, ilm-fan sohasida ko‘plab kashfiyotlar qilindi.

Shaxsan men uchun Andalus davri shunchaki tarixiy voqea emas, balki tafakkur va madaniyatning yuksak namunasi hisoblanadi. Bugungi kunda biz Andalus merosini chuqurroq o‘rganib, undagi ilmiy va adabiy yutuqlardan ilhom olishimiz kerak, deb o‘ylayman.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ibnü'l-Kûtiyye. Târîhu İftitâhi'l Endelüs. – Kâhire: Dâru'l-Kitâbi'l-Mısrî, 1989. – S. 79
2. İhsan Abbas. Resâilu İbn Hazm el-Endelüsî. – Beyrut: Vefeyât, 1983. – S. 12
3. Brockelmann C. Geschichte der arabischen Litteratur. Bd. 1–2. – Leiden: C. F. Amelangs Verlag, 1909. – S. 13.

4. Begmuradovich, S. A. (2025). EINSATZ VON INFORMATIONSTECHNOLOGIE IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(3), 97-102.

5. Bekmuradovich, S. A. (2025). THE USAGE OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(2), 180-184.

6. Begmuradovich, S. A. (2023). INTEGRATION OF EDUCATIONAL PROCESS FORMS. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIIY TADQIQOTLAR| JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH, 2(2), 20-23.

7. Alovuddinov. Sh. "**Arab madaniyati tarixi**". Toshkent, 2020.

8. G'ulomov. M. "**Sharq uyg'onish davri madaniy merosi**". Toshkent, 2018.

9. Ibn Hazm. "**Tavqul-hamoma**" (o'zbek tilidagi tarjimas).

10. Karimov. A. "**Andalus falsafasi va uning Yevropaga ta'siri**".